

“Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM

Mazkur Nizom maktabgacha, umumiy o‘rta, qo‘shimcha ta‘lim va oliy ta‘lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda – ta‘lim tashkilotlari) faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar o‘rtasida “Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Tanlov ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida o‘tkaziladi.
2. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlar Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tomonidan muvofiqlashtiriladi.
3. Tanlovda ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlari (keyingi o‘rinlarda – talabgorlar) o‘z xohishlariga ko‘ra, ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi moliyaviy savodxonlikni samarali o‘qitishga qaratilgan ilg‘or g‘oyalar va innovatsion yondashuvlarga ega eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni aniqlash, ularning mualliflarini qo‘llab-quvvatlash hamda ilg‘or tajribalarni ommalashtirishdan iborat.
5. Tanlovning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
talabgorlarning ta‘lim jarayonidagi faolligini oshirish hamda moliyaviy savodxonlik bo‘yicha samarali o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratilishiga erishish;
moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda samarali va innovatsion yondashuvlarni aniqlash;
yaratilgan o‘quv-uslubiy va tavsiyaviy qo‘llanmalarni Internet jahon axborot tarmog‘ida erkin foydalanish uchun joylashtirish hamda ular to‘g‘risida keng pedagogik jamoatchilikni xabardor qilish.

3-bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish

6. Tanlov bir bosqichda mart-avgust oylarida respublika miqyosida o‘tkaziladi.
7. Tanlovni sifatli va yuqori saviyada tashkil etish uchun kamida 11 kishidan iborat tashkiliy qo‘mita tuziladi.
8. Tanlovga talabgorlar tomonidan taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqish va baholash uchun ekspertlar guruhi tashkil etiladi. Ekspertlar guruhi tarkibiga yuqori tajribaga ega bo‘lgan kamida 11 nafar malakali mutaxassislar kiritiladi. Zaruriyatga ko‘ra, ekspertlar guruhi tarkibiga qo‘shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

9. Tanlov g'oliblarini aniqlash maqsadida tanlov hay'ati tashkil etiladi. Tanlov hay'ati ekspertlar guruhi tomonidan saralashdan o'tkazilgan materiallarni ko'rib chiqadi hamda tanlov natijalari yuzasidan yakuniy qaror qabul qiladi.

Ekspertlar guruhi, tanlov hay'ati va tashkiliy qo'mita a'zolari tanlovda talabgor yoki talabgorlardan biri sifatida qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlangan taqdirda, Markaz tomonidan tanlov materiallarini baholash natijalari bekor qilinadi va hisobga olinmaydi.

Tanlov hay'ati qarorlari majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi hamda tanlov natijalari bo'yicha qabul qilingan yakuniy qaror hisoblanadi.

10. Tanlovga materiallar elektron formatda **raqamlitalim.trm.uz** platformasi orqali **2026-yil 15-avgustgacha** qabul qilinadi. Bunda tanlovga quyidagi hujjatlar PDF formatda taqdim etiladi:

mazkur Nizomga 1-ilovadagi namunaga muvofiq tanlov hay'ati raisi nomiga ariza;

talabgor(lar) haqidagi ma'lumot (F.I.O., ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi (agar bo'lsa), bog'lanish uchun telefon raqami);

o'quv-uslubiy qo'llanmaning qisqacha mazmuni (annotatsiya);

o'quv-uslubiy qo'llanmaning elektron nusxasi;

o'quv-uslubiy qo'llanmaning ilmiy yoki ta'lim tashkilotlarining kengash yig'ilishi muhokamasidan o'tganligi to'g'risidagi bayonnomadan ko'chirma;

o'quv-uslubiy qo'llanmaga soha mutaxassislaridan ikkita taqrizning elektron nusxasi;

o'quv-uslubiy qo'llanma antiplagiat tekshiruvidan muvaffaqiyatli o'tganligini tasdiqlovchi sertifikat (o'xshashlik ko'rsatkichi 20 foizdan oshmasligi talab etiladi).

11. Belgilangan muddatdan keyin topshirilgan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi va talabgorlarni ogohlantirmasdan tanlovdan chetlashtiriladi.

12. Ikki yoki undan ortiq bir xil mazmun va shakldagi, shuningdek, ko'chirilgan (plagiat) ishlanmalar tanlov hay'ati tomonidan tan olinmaydi.

13. Eng yaxshi o'quv-uslubiy qo'llanmaga quyidagi talablar qo'yiladi:

aniq, qiziqarli va maqsadli auditoriyaga (yosh guruhi, malaka darajasi va boshqalar) mos bo'lishi;

tanlovning maqsad va vazifalariga mos kelishi;

mavzu moliyaviy savodxonlik sohasidagi zamonaviy ilmiy yutuqlar va nazariy konsepsiyalarga tayanishi;

keltirilgan ma'lumotlar ishonchli manbalardan olinishi va havolalarning berilishi (foydalanilgan adabiyotlar va manbalar);

ilmiy tushunchalarning aniq va to'g'ri ifodalanishi;

ilmiy yoki murakkab tushunchalar sodda va tushunarli tilda izohlanishi;

misollar, analogiyalar va topshiriqlar real hayotiy vaziyatlar yordamida tushuntirilishi;

kundalik hayotda uchraydigan turli muammolarga yechim topishga yo'naltiradigan loyihalar va shunga o'xshash amaliy tadqiqotlarning mavjud bo'lishi;

moliyaviy savodxonlikka oid terminlarning to'g'ri va izchil qo'llanilishi.

14. Tanlovga taqdim etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar quyidagi shakliy-

texnik talablarga mos bo'lishi kerak:

eng kam hajmi 56 sahifadan iborat bo'lishi;

annotatsiya 6-8 ta gapdan oshmasligi;

kalit so'zlar (indeksatsiya uchun) 8-12 ta so'zdan iborat bo'lishi;

jadvallarni "Microsoft Word"ning "tablitsa" funksiyasi orqali kiritish;

ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos kelishi (matnda ularga havolalar berilishi);

bo'limlar va mavzular aniq ajratilgan bo'lishi;

matni xotirada saqlashni osonlashtirish, mavzulardagi ixcham chizmalar, turli tasviriy ifodalar, jadval, infografika hamda rasmlar bilan muvofiq tarzda ta'minlanishi;

muhim ma'lumotlar qalin shrift, rangli fon yoki ramkalar bilan ajratilgan bo'lishi.

4-bob. O'quv-uslubiy qo'llanmalarni baholash va g'oliblarni aniqlash

15. Tanlovga taqdim etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar joriy yilning **5-sentabriga qadar** ekspertlar guruhi tomonidan mazkur Nizomga **2-ilovada** belgilangan baholash mezonlari asosida **100 ballik tizimda** baholanadi.

Baholash natijalariga ko'ra, ikki yoki undan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma bir xil umumiy ball to'plagan taqdirda, g'olibni aniqlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

baholash mezonlarining **5, 7 va 11-bandlari** bo'yicha yuqori ball to'plagan ishtirokchi ustun deb e'tirof etiladi;

baholash mezonlarining **5, 7 va 11-bandlari** bo'yicha ham ballar teng bo'lgan hollarda, tanlov hay'ati tomonidan qo'shimcha muhokama o'tkaziladi va plagiat tekshiruv natijalariga ko'ra boshqa o'quv adabiyotlariga eng kam o'xshashliklarga ega bo'lgan o'quv-uslubiy qo'llanma g'olib deb topiladi.

Qo'shimcha muhokama natijalari tanlov hay'ati majlisi bayonnomasiga kiritiladi va yakuniy hisoblanadi.

16. Baholash natijalariga ko'ra eng yuqori ball to'plagan 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanmaning mualliflari bo'lgan talabgorlar tanlov hay'ati qarori bilan g'olib deb belgilanadi.

17. Tanlovda g'olib deb topilgan talabgorlarning o'quv-uslubiy qo'llanmalari ommalashtirish uchun mazkur Nizomga 3-ilovada keltirilgan ommaviy oferta asosida Markazning rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda <https://raqamlitalim.trm.uz/financial-literacy> platformasiga erkin foydalanish uchun joylashtiriladi.

5-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

18. Tanlov natijalari **joriy yilning 10-sentabrigacha** Markazning rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e'lon qilinadi va taqdirlanadi.

19. Tanlov hay'ati qaroriga muvofiq g'olib deb topilgan maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlari xodimlari tomonidan ishlab

chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar uchun 1, 2 va 3-o'rinlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi xodimlar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar uchun 1, 2 va 3-o'rinlar hamda 5 ta nominatsiya bo'yicha g'olib deb topilgan talabgorlar homiylar tomonidan maxsus diplom va qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

20. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishda faollik ko'rsatgan tashkiliy qo'mita, tanlov hay'ati hamda ekspertlar guruhi a'zolari moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga tavsiya etiladi.

6-bob. Apellyatsiya shikoyati berish va ularni ko'rib chiqish tartibi

21. Talabgorlar baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, natijalar rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran **3 ish kuni** ichida Markaz nomiga apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilish huquqiga ega.

22. Apellyatsiya shikoyati yozma shaklda, asoslantirilgan holda taqdim etiladi hamda unda quyidagi ma'lumotlar majburiy tartibda ko'rsatilishi lozim:

talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi;

tanlovga taqdim etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmaning to'liq nomi;

baholash natijalariga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlarning aniq va dalillarga asoslangan sabablari.

23. Apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish maqsadida Markaz tomonidan **7 kishidan iborat** apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

24. Apellyatsiya komissiyasi shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran **5 ish kuni** ichida uni ko'rib chiqadi hamda quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

baholash natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

baholash natijalarini qisman o'zgartirish (ballarni qayta ko'rib chiqish asosida);

baholash natijalarini bekor qilish va qayta baholashni belgilash.

25. Apellyatsiya komissiyasining qarori yozma bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va talabgorga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

26. Apellyatsiya komissiyasining qarori yakuniy hisoblanadi hamda qayta ko'rib chiqilmaydi.

7-bob. Yakuniy qoida

27. Tanlovni o'tkazish muddatiga Markaz direktorining tegishli buyrug'i bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.